



## SIRDARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

# Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **9 976** tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1 430** taga yoki **12,5 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,2** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **1 522** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **14,2 %** ga kamaygan.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



**2020-2024- yillar yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), birlikda**



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.

2024- y.


737	Oqoltin	726
1 002	Boyovut	866
914	Sayxunobod	749
915	Guliston	798
899	Sardoba	896
1 061	Mirzaobod	889
1 390	Sirdaryo	1 250
659	Xovos	599
2 702	Guliston sh.	2 234
296	Shirin sh.	205
831	Yangiyer sh.	764

2024- yil 1- oktabr holatiga

faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **9 976** tani, shundan, yangi tashkil etilganlari **1 522** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 234** tani yoki jamiga nisbatan **17,3 %** ni tashkil etdi.

**1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda**





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\***

Guliston sh.	22,3
Sardoba	20,1
Oqoltin	18,8
Guliston	16,2
Yangiyer sh.	16,0
Mirzaobod	15,1
Sayxunobod	14,3
Sirdaryo	13,4
Xovos	12,8
Shirin sh.	10,6
Boyovut	10,5

**Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- oktabr holatiga, birlikda**



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **15,2** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2019- yilga nisbatan **1,9** birlikka kamaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Guliston shahrida **22,3** birlik, Sardoba tumanida **20,1** birlik, Oqoltin tumanida **18,8** birlik, Guliston tumanida **16,2** birlik va Yangiyer shaharda **16,0** birlikka yetdi.

\*Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo’shgan holda)


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich



Guliston shahri  
– 22,3 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **22,3** birlik, Sardoba tumanida **20,1** birlik, Oqoltin tumanida **18,8** birlik, Guliston tumanida **16,2** birlik, Yangiyer shahrida **16,0** birlik Mirzaobod tumanida **15,1** birlik, Sayxunobod tumanida **14,3** birlik, Sirdaryo tumanida **13,4** birlik va Xovos tumanida **12,8** birlik kuzatildi.


## O'rta ko'rsatkich




Mirzaobod tumani  
– 15,1 birlik.



## Eng past ko'rsatkich



Boyovut tumani  
– 10,5 birlik.



**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2024-yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**

### Guliston shahri

22,3

### Oqoltin tumani

20,1

### Yangiyer shahri

16,2

18,8

16,0

Sardoba tumani

Guliston tumani

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


**Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

**2023- y.**

**2024- y.**

354	Guliston sh.	303
167	Oqoltin	159
145	Mirzaobod	169
235	Sardoba	153
139	Guliston	141
206	Sirdaryo	153
129	Boyovut	131
144	Sayxunobod	103
103	Xovos	98
121	Yangiyer sh.	92
31	Shirin sh.	20

**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da**




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Guliston shahri – **29,2** %, Mirzaobod – **16,3** %, Oqoltin – **15,3** %, Sardoba – **14,7** % va Sirdaryo tumanlari – **14,7** % ga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **566** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **303** ta hamda sanoatda **226** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Guliston shahrida **303** ta, Mirzaobod tumanida **169** ta hamda Oqoltin tumanida **159** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar ulishi % da



So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **11 165** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 139** (yoki **37,0** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 300** (yoki **20,6** % ) ta, sanoat sohasida – **1 986** (yoki **17,8** %) ta, xizmatlar sohasida – **1 963** (yoki **17,6** %) ta va qurilishda – **777** ( yoki **7,0** %) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **67,2** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **1,7** punktga ko‘paygan.




## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida **97,7** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **97,2** % ni, yo‘lovchi tashishda **95,2** % ni, chakana savdoda **93,6** % ni, yuk tashish **93,7** % ni va yuk aylanmasida **86,4** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m**



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 421,5\*** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (**1 305,2** mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (**809,7** mlrd. so‘m), Boyovut (**753,1** mlrd. so‘m), Guliston shahri (**584,3** mlrd. so‘m) va Sayxunobod tumanlarida (**222,4** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shirin shahrida (**23,6** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

## **Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**




\*Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m**

*2024- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 38,0 % ni tashkil etdi.*




**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xovos (93,2 %), Mirzaobod (91,6 %), Oqoltin (83,9 %), Yangiyer shahri (83,7 %), Sardoba (74,8 %), Boyovut (73,0 %), Guliston shahri (58,6 %) va Sayxunobod (53,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi**



## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Guliston sh.	669,8	97,0
Shirin sh.	48,9	25,3
Yangiyer sh.	217,4	100,0
Oqoltin	57,5	87,8
Boyovut	61,2	93,7
Sayxunobod	66,3	87,5
Guliston	95,8	94,4
Sardoba	113,9	97,3
Mirzaobod	397,0	76,1
Sirdaryo	299,3	92,3
Xovos	67,9	71,9

hajmi, mlrd. so‘mda

ulushi, % da


2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2 674,7\*** milliard so‘nni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,5** % ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish **107,7** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (**669,8** mlrd. so‘m), Mirzaobod (**397,0** mlrd. so‘m), Sirdaryo (**299,3** mlrd. so‘m) tumanlarida, Yangiyer shaharda (**217,4** mlrd. so‘m), Sardoba (**113,9** mlrd. so‘m), Guliston (**95,8** mlrd. so‘m) hamda Xovos tumanlarida (**67,9** mlrd. so‘m) qayd etildi.

\*Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


**2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda**




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **6 362,5** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **72,9 %** ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **68,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Shirin shahar (**2 608,2** mlrd. so‘m), Boyovut tumani (**1 041,8** mlrd. so‘m), Sirdaryo tumani (**631,5** mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (**565,9** mlrd. so‘m), Guliston shahri (**500,7** mlrd. so‘m), Sayxunobod tumani (**262,2** mlrd. so‘m), hamda Sardoba tumanlarida (**252,9** mlrd. so‘m) qayd etildi.

**2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da**



**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi mlrd. so‘m, ulushi % da**




■ hajmi ■ foizi

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **10 474,7** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **97,7 %** ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **103,2 %** ni tashkil qildi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Boyovut (**1 596,9** mlrd. so‘m), Sayxunobod (**1 493,4** mlrd. so‘m), Sirdaryo (**1 360,0** mlrd. so‘m), Oqoltin (**1 193,4** mlrd. so‘m), Xovos (**1 173,2** mlrd. so‘m) hamda Guliston tumanlarida (**1 143,8** mlrd. so‘m) qayd etildi.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Boyovut	1 596,9	99,7
Sayxunobod	1 493,4	98,3
Sirdaryo	1 360,0	99,0
Oqoltin	1 193,4	95,1
Xovos	1 173,2	99,8
Guliston	1 143,8	99,7
Sardoba	1 115,2	90,1
Mirzaobod	973,9	98,7
Guliston sh.	353,4	99,9
Yangiyer sh.	37,8	100,0
Shirin sh.	33,7	100,0


hajmi, mlrd. so‘mda      ↑  
ulushi, % da      ↑

## 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 939,7\*** mld. soʻmni yoki umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining **93,6 %** ni tashkil etib, oʼsish surʼati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **109,6 %** ni tashkil qildi.

## 2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi


Guliston sh.	1 310,2	88,2
Sirdaryo	652,5	97,6
Yangiyer sh.	349,9	94,5
Mirzaobod	273,8	98,0
Boyovut	226,4	98,1
Guliston	196,6	98,6
Oqoltin	181,7	98,9
Sayxunobod	144,5	98,1
Xovos	144,2	99,4
Sardoba	132,1	97,9
Shirin sh.	55,3	100,0

hajmi, mlrd. soʻmda

ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (1 310,2 mlrd. soʻm), Sirdaryo (652,5 mlrd. soʻm), Yangiyer shahri (349,9 mlrd. soʻm), Mirzaobod (273,8 mlrd. soʻm), Boyovut (226,4 mlrd. soʻm), va Guliston tumanlari (196,6 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keldi.


## 2019 va 2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining oʼzgarishi, mlrd. soʻm



\*Viloyat umumiy koʼrsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajjni hisobga olgan holda

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda

Guliston sh.	723,8
Sirdaryo	541,6
Yangiyer sh.	301,6
Mirzaobod	177,1
Boyovut	176,4
Xovos	175,7
Guliston	161,1
Sardoba	135,6
Sayxunobod	134,9
Oqoltin	111,7
Shirin sh.	54,8

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 232,7\*** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,6 %** ni tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **114,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Guliston shahri (**723,8** mlrd. so‘m), Sirdaryo (**541,6** mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (**301,6** mlrd. so‘m), Mirzaobod (**177,1** mlrd. so‘m), Boyovut (**176,4** mlrd. so‘m), Xovos (**175,7** mlrd so‘m) va Guliston tumanlari (**161,1** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

\* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi turlari  
2024- yilning (yanvar-sentabr oylarida)**

<b>1 346,1</b>	<b>Savdo xizmatlari</b>	<b>94,9</b>
<b>2 188,9</b>	<b>Yashash va ovqatlanish xizmatlari</b>	<b>95,2</b>
<b>707,4</b>	<b>Transport xizmatlar</b>	<b>99,1</b>
<b>129,7</b>	<b>Sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar</b>	<b>67,5</b>
<b>228,6</b>	<b>Boshqa xizmatlar</b>	<b>48,6</b>
<b>143,0</b>	<b>Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar</b>	<b>85,9</b>
<b>34,0</b>	<b>Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar</b>	<b>72,2</b>
<b>75,2</b>	<b>Ijara xizmatlari</b>	<b>75,9</b>
<b>21,7</b>	<b>Moliyaviy xizmatlar</b>	<b>1,3</b>
<b>42,4</b>	<b>Ta’lim sohasidagi xizmatlar</b>	<b>21,1</b>
<b>37,2</b>	<b>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari</b>	<b>11,2</b>
<b>152,8</b>	<b>Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar</b>	<b>99,0</b>
<b>125,8</b>	<b>Boshqa shaxsiy xizmatlar</b>	<b>100,0</b>



*Hajmi, mlrd. so‘mda*

*Ulushi, foizda*


Yuqorida diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi yashash va ovqatlanish xizmatlarida – **95,2 %** (**2 188,9** mlrd. so‘m), savdo xizmatlarida – **94,9 %** (**1 346,1** mlrd. so‘m), transport xizmatlar – **99,1 %** (**707,4** mlrd. so‘m) hamda boshqa xizmatlar **48,6 %** (**228,6** mlrd. so‘m)ni tashkil etdi. Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlar **1,3 %** (**21,7** mlrd. so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022 - y. 2023- y. 2024- y.

**2024- yilning yanvar-sentabrdagi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**

Yangiyer sh.	41 537,4	95,0
Boyovut	22 723,4	82,9
Sirdaryo	18 733,3	38,2
Sayxunobod	13 278,1	64,6
Xovos	6 696,6	96,1
Oqoltin	6 030,6	100,0
Mirzaobod	4 321,4	63,3
Sardoba	4 138,6	99,6
Guliston sh.	3 827,6	20,4
Shirin sh.	1 852,1	100,0
Guliston	890,8	18,6

hajmi, ming. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrdagi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **124,5** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **65,4** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrdagi hujudlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shirin shahrida – **100,0** %, Oqoltin tumanida – **100,0** %, Sardoba tumanida – **99,6** %, Xovos tumanida – **96,1** %, Yangiyer shahrida – **95,0** %, Boyovut tumanida – **82,9** %, Sayxunobod tumanida – **64,6** % va Mirzaobod tumanida – **63,3** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – **18,6** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **222,8** million AQSH dollarini yoki jami importning **82,8** % ni tashkil etdi.


**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida – **100** %, Oqoltin tumanida – **100** %, Sardoba tumanida – **100** %, Guliston tumanida – **99,9** % Xovos tumanida – **97,1** %, hamda Sayxunobod tumanida – **95,8** % ni tashkil etdi.

Yangiyer sh.	100,0
Oqoltin	<b>100,0</b>
Sardoba	100,0
Guliston	99,9
Xovos	97,1
Sayxunobod	95,8
Boyovut	91,6
Mirzaobod	79,3
Guliston sh.	76,5
Sirdaryo	70,5
Shirin sh.	14,5


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,7** % ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,3** % ni tashkil qildi.



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,4** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,3** % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,7** % ni tashkil qildi.



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,2** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,8** % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




2024- yil III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da 554 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 189 (34,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 325 (58,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 40 (7,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 40,8 % (226 ta), xizmatlar sohasida – 23,3 % (129 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 15,7 % (87 ta), sanoatda – 10,8 % (60 ta), qurilishda – 9,4 % (52 ta) ni tashkil etdi.

**2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2024- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

139	Guliston sh.	25,1
14	Shirin sh.	2,5
49	Yangiyer sh.	8,8
42	Oqoltin	7,6
43	Boyovut	7,8
42	Sayxunobod	7,6
33	Guliston	6,0
56	Sardoba	10,1
32	Mirzaobod	5,7
67	Sirdaryo	12,1
37	Xovos	6,7


**Soni, birlikda**

**Ulushi, foizda**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (**139** ta), Sirdaryo (**67** ta), Sardoba tumani (**56** ta) va Yangiyer shahri (**49** ta), hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragi uchun umumiyligi iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyligi iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning III choragida **220** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **189** ta yoki 2019- yilning III choragiga nisbatan **31** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **127** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **325** ta yoki **198** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **28** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **40** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **12** taga oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**



yaxshilanish

o‘zgarishsiz

yomonlashish


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning III choragida **276** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **234** ta yoki 2019- yilga nisbatan **42** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning III choragida **98** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning III choragida **252** taga yetgan yoki **154** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilning III choragida **26** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **25** tani tashkil etib, **1** taga kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **58,7 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **34,1 %** ga yoki 2019- yilga nisbatan **24,6** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **33,9 %** bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning III choragida **58,7 %** yoki **24,8** birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **7,5 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilga kelib, bu ko‘rsatkich **7,2 %** ga yetgan yoki **0,3** birlikka kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **69,0** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **45,8** % ga yoki 2019- yilning III choragiga nisbatan **23,2** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2019- yilning III choragida **24,5** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib **49,3** % yoki **24,8** birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning III choragida **6,5** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **4,9** % yoki **1,6** birlikka kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **46,0** % ni, xizmatlar sohasida – **23,3** % ni, sanoatda – **12,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **38,5** % ni, xizmatlar sohasida – **24,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **19,7** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **35,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **25,0** % ni, sanoatda – **20,0** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **41,9** % ni, xizmatlar sohasida – **23,3** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **39,0** % ni, xizmatlar sohasida – **23,0** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **18,5** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **57,1** % ni, xizmatlar sohasida – **28,6** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiyligi aylanmasi</b>	43,4	49,2	7,4
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	12,7	81,9	5,4
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	29,6	64,9	5,5
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	21,7	71,5	6,8
<b>Raqobat muhiti</b>	29,6	65,5	4,9

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiyligi aylanmasi</b>	40,8	56,5	2,7
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	20,2	77,3	2,5
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	34,5	62,8	2,7
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	29,4	67,0	3,6
<b>Raqobat muhiti</b>	35,6	62,5	1,9

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli


# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

**2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin  
3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli